

Khan Academy O'zbek

MOLIYAVIY HISOBOT

Avgust, 2020

Aziz do'stlar!

Siz Khan Academy O'zbek jamoasi tomonidan amalga oshirilgan ishlar bo'yicha o'n to'rtinchi moliyaviy hisobotni o'qiyapsiz. Bizni qo'llab-quvvatlaganingiz uchun sizdan juda minnatdormiz va ishimizni yanada shaffof qilish uchun har oyda rasmiy matbuot hisobotini nashr etib boramiz.


Sizning yordamingiz va sarmoyalaringiz tufayli biz, Khan Academy O'zbek tashabbuskor jamoasi, maqsadimizga yanada yaqinlashamiz va dunyoga mashhur Khan Academy bepul onlayn ta'lim platformasini mahalliyashtirish loyahasini amalga oshirish uchun qo'limizdan kelganicha harakat qilamiz.

To'plangan barcha mablag'lar loyihani rivojlantirishga yo'naltiriladi.


2020-yil avgust oyida loyihaga 94 460 607 so'm xayriya qilindi, 91 994 445 so'm sarflandi. Mazkur oyda qilingan xarajatlar quyidagi jadvalda keltirilgan:

Xarajatlar ro'yxati	summa so'mda
Tarjima	- 6 377 360
Tahrir	- 22 005 280
Video	- 23 201 200
Ma'muriy xarajatlar	- 13 045 360
Bank xarajatlari	- 274 573
Marketing	- 6 879 840
Fandreyzing (mablag' yig'ish)	- 4 498 560
Ta'mirlash va texnik xarajatlar	-
Jihoz va uskunalar	-
Aloqa xarajatlari (internet, telefon)	-
Ijara haqi	- 4 000 000
Transport xarajatlari	-
Soliqlar	- 11 188 970
Boshqa xarajatlar	- 523 301
Jami	- 91 994 445

Xarajatlar foizi quyidagi aylana diagrammada aks etgan:



Avgust oyida xarajatlarning 56 foizi (51 583 840 so'm) kontentni yaratishga, ya'ni matnli materiallarni tarjima qilish, ularni tahrir qilish va video darslarni yaratishga sarflandi:



Bugungi kungacha loyihaga 1 713 749 671 so'm va 76 595 AQSH dollari xayriya qilindi, 1 973 260 773 so'm sarflandi.

- Matnni tarjima qilish jarayonini [bu yerda](#) ko'rish mumkin.
- Video darslarni yaratish jarayonini [bu yerda](#) ko'rish mumkin.
- Tayyor video darslar [YouTube](#) kanalimizga joylashtirilgan.

Vebsayt — <https://xanakademiya.uz>

Telegram kanal — <https://t.me/khanacademyuzbek>

Facebook sahifa — <https://www.facebook.com/KhanAcademyUzbek>

Instagram sahifa — <https://www.instagram.com/khanacademyuzbek>
